



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 3-noyabr, № 234 (8577)

Juma Saytimgiza o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON — FRANSIYA: QAT'IY ISHONCH VA AZALIY DO'STLIKKA ASOSLANGAN MUNOSABATLAR STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIDA DAVOM ETADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron 1-2-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.



O'zbekiston va Fransiya. Bu ikki mamlakatni bir necha ming kilometr masofa ajratib tursa-da, savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xususan, sobiqon Amir Temur Fransiya qiroli Shari VI bilan maktab almashib, mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda Fransiya davlati bo'yicha Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda Fransiya davlati bo'yicha Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan.

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronni o'zi uchun qulay vaqtda tashrif bilan O'zbekistonga kelishga taklif etgandi.

Fransiya Prezidentining yurtingizga tashrifi asosiy tadbirlari 2-noyabr kuni Samarqand shahrida oliy martabali mehmonni rasmiy kutib olish marosimidan boshlandi.

Kongress markazi oldidagi maydonida faxriy qorovul saf tordii.

O'zbekiston Prezidenti oliy martabali mehmonni samimiy qarshi oldi va shohsupaga taklif qildi.

Harbiy orkestr ijrosida ikki mamlakat madhiyalari yangradi. Faxriy qorovul davlat rahbarlari oldidan tantanali yurib o'tdi.

O'zbekiston va Fransiya Prezidentlari rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuv avvalida mamlakatimiz yetakchisi Fransiya Prezidentining O'zbekistonga oxirgi 30 yildagi ilk tashrifi tarixiy ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

Emmanuel Makron davlatimiz rahbariga tashrif bilan kelish taklifi hamda Fransiya delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan samimiy mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirdi.

Fransiya rahbari Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar dasturini to'liq qo'llab-quvvatladi.

Yetakchilar Fransiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi keng qamrovli hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalarini atroflicha muhokama qildilar hamda ikki tomonlama munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko'tarishga kelishib oldilar.

Keyingi yillarda ko'p qirrali O'zbekiston — Fransiya munosabatlari barcha yo'nalishda jadal rivojlanib borayotgani ta'kidlandi.

Tovar ayirboshlash va qo'shma korxonalar soni karrasiga oshgani mamlakat bilan qayd etildi. Joriy va istiqbolli loyihalar portfeli 10 milliard yevrodan oshdi.

Fransiya taraqqiyot agentligi bilan 1 milliard yevrolik Strategik hamkorlik dasturi amalga oshirilmog'chi.

"Yashil" energetika, xomashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlash, innovatsion qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, logistika, infratuzilmani rivojlantirish, turizm va boshqa

sohalarda yangi yirik loyihalarni ilgari surish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Fransiya O'zbekistonning Markaziy Osiyoda ishonchni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini, shuningdek, mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishini hamda Yevroittifoq bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim tez fursatda imzolashini bundan buyon ham qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini ta'kidlandi.

Siyosiy muloqotni davom ettirish, xavfsizlik, yuzaga kelayotgan tahdid va xatarlarga samarali qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhimligi qayd etildi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik kun tartibi boy ekanini mamlakatimiz bilan ta'kidlandi. O'zbekistonda fransuz tilini o'rganishga qiziqish ortib borayotgani aytiladi.

Toshkent shahrida O'zbekiston — Fransiya oliy ta'lim muassasasini ochishni tezlashtirish hamda fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash borasidagi hamkorlikni kengaytirishga kelishib olindi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning muzokaralari ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom etdi.

Davlatimiz rahbari uchrashuvni ochar ekan, Fransiya Prezidentiga rasmiy shaxsalar, yetakchi kompaniyalar rahbarlari, taniqli madaniyat va fan arboblardan iborat nufuzli delegatsiya boshchiligidagi O'zbekistonga kelgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Bu shuning O'zbekiston — Fransiya do'stlik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlashga shaxsiy e'tiboringiz va alohida yondashuvingizning yorqin tasdig'idir, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muntazamlik kasb etgan oliy darajadagi uchrashuvlar tufayli ikki mamlakat munosabatlari keng qamrovli tus olgani ta'kidlandi.

Tomonlar faol siyosiy aloqalarni, parlamentlar, hukumatlar, tashqi siyosiy va iqtisodiy idoralarning muntazam muloqotini davom ettirishga kelishib oldilar.

Hisob-kitoblarga ko'ra yaqin orada 1

milliard yevroga yetishi kutilayotgan tovar ayirboshlash jadal o'sayotgani mamlakatimiz bilan qayd etildi. Joriy va istiqbolli loyihalar portfeli 10 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda.

Yurtimizda Fransiyaning "Orano", "EDF", "Total Energies", "SUEZ", "Eiffage", "Voitalia", "Lactalis", "Veolia" va ko'plab boshqa yetakchi kompaniyalari muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Davlatimiz rahbari qazib olish tarmog'i, strategik xomashyo resurslarini qayta ishlash, gibrid, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, suv ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilish, "aqli" qishloq xo'jaligini joriy etish, shahar va transport infratuzilmasini rivojlantirish, turizmni hamkorlikning ustuvor sohalari sifatida qayd etdi.

Ishbilarmonlar o'rtasidagi sheriklikni ilgari surish uchun O'zbekiston — Fransiya savdo palatasi ishga tushishi hamda Toshkentda "Business France" agentligining ofisini ochish rejalashtirilayotgani e'lon qilindi.

Gumanitar sohadagi hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida uch yillik dastur qabul qilish va uning doirasida o'zaro Madaniyat kunlarini o'tkazish taklif qilindi.

Tomonlar Samarqand shahrida Fransiya alyansi filiali ochilishini olqishladilar hamda o'zaro oliy ta'lim muassasasini tashkil etishni jadallashtirishga kelishib oldilar.

Fransiyaning turli shaharlaridan Samarqand, Buxoro va Xivaga charter reyslarni tashkil etgan holda sayyohlar almashinuvini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish tashabbusi ilgari surildi.

Xalqaro kun tartibidagi masalalar, xavfsizlikka umumiy xatar va tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikni davom ettirish yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston yetakchisi Fransiya Prezidentiga 2024-yilda Parij shahrida yozgi Olimpiya o'yinlari muvaffaqiyatli o'tishini tiladi.

Davlat rahbarlari erishilgan barcha kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tayyorlashga topshiriq berdilar.

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron Qo'shma bayonot qabul qildilar.

Hujjatda ikki davlatning o'zaro

munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko'tarish niyati qayd etilgan.

Ikki tomonlama hamkorlikning joriy holatiga hamda turi sohalarda davlatlararo munosabatlarni kengaytirish istiqbollarga baho berilgan, tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga, dolzarb global va mintaqaviy muammolarni birgalikda hal qilishga intilishi tasdiqlangan.

Prezidentlar huzurida moliya, ta'lim, madaniyat va hamkorlikning boshqa yo'nalishlari bo'yicha 8 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi. Jumladan:

— "Samarqand Fransuz Alyansi"ni tashkil etish va uning faoliyati to'g'risida hukumatlararo bitim;

— O'zbekistonda ichimlik suvi ta'minoti infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha hukumatlararo moliyaviy bayonnomalar (1 va 2-bosqichlar);

— O'zbekistonda Fransiya taraqqiyot agentligi va "PROPARCO"ni tashkil etish va ularning faoliyati to'g'risidagi hukumatlararo bitimga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida bayonnomalar;

— tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida diplomatik kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlik to'g'risida deklaratsiya;

— maktabgacha, maktab, professional va oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik bo'yicha bayonnomalar;

— madaniy meros sohasidagi hamkorlik to'g'risida deklaratsiya;

— professional va texnik ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risida deklaratsiya.

Shuningdek, tashrif doirasida O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi hamda "SUEZ" va "Bouygues" kompaniyalari o'rtasida hamkorlik to'g'risida deklaratsiyalar imzolandi.

Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning O'zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrifining ishlabarmonlik dasturi doirasida Samarqand shahrida qo'shma biznes forumi bo'lib o'tdi. Uning ishida ikki davlat rahbarlari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil noyabr oyida Fransiya rasmiy tashrifi davomida ham ushbu mamlakat ishlabarmon doiralarning yetakchi vakillari bilan uchrashgan. O'shanda savdo-iqtisodiy

va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish yuzasidan aniq kelishuvlarga erishilgan edi. Bugungi uchrashuv ushbu ochiq va konstruktiv muloqotning davomi bo'ldi.

Fransiya tomonidan tadbirda tashqi savdo, iqtisodiy jozibadorlik masalalari va xorijdagi fransuz fuqarolarining ishlari bo'yicha vazir-delegat Olivye Besht, iqtisodiyot, moliya, sanoat va raqamli suverenitet vaziri huzuridagi sanoat masalalari bo'yicha vazir-delegat Rolan Leskyur, "MEDEF International" biznes uyushmasi bosh direktori Klod Imoven, Fransiya taraqqiyot agentligi bosh direktori Remi Riu qatnashdi.

Bundan tashqari, tadbirda "EDF", "Voitalia", "Total Energies", "Orano", "Eiffage", "Veolia", "SUEZ", "Lactalis", "Semai", "Semmaris", "Alstom", "Airbus Helicopters", "ATR", "Vicat", "Mobilias", "Boehringer Ingelheim", "Thales", "Aramine", "Meridiame", "Societe Generale", "Natixis" kabi yirik kompaniya va banklar rahbarlari ishtirok etdi.

Ko'ha Samarqanddagi uchrashuvni ochar ekan, davlatimiz rahbari Prezident Emmanuel Makronni va Fransiya ishlabarmon elitasi vakillarini samimiy qutladi.

Oliy darajadagi faol muloqotlar tufayli savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikka ijobiy sur'at kuzatilayotgani mamlakatimiz bilan qayd etildi.

Yil boshidan o'zaro savdo hajmi uch barobar, keyingi yillarda qo'shma korxonalar soni to'rt barobar ko'paydi.

To'g'ridan-to'g'ri savdo aloqalari va sanoat kooperatsiyasini yanada mustahkamlash ikki mamlakatning uzoq muddatli manfaatlariga mos ekanini qayd etildi.

Bugun qadri hamkasbim bilan nihoyatda samarali muzokaralarni o'tkazdik, hamkorligimizning yangi davri boshlanayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Kelgusida o'zaro munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko'tarish niyatidamiz, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI OSTONAGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Ostona shahriga keldi.

Aeroportda davlatimiz rahbarini Qozog'iston Bosh vaziri Aliخان Smailov kutib oldi.

Bugun mamlakatimiz yetakchisi Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etadi.

O'ZA.

TARAQQIYOT VA FAROVONLIK YO'LIDAGI MUSHTARAK QADAMLAR

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-3-noyabr kunlari Ostona shahrida bo'lib o'tadigan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining yig'ilishida ishtirok etadi.

Biz va jahon

Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekiston ushbu tashkilotning a'zolari, Vengriya va Turkmaniston kuzatuvchi davlat maqomiga ega.

Davlat rahbarlari kengashi TDTning oliy organi bo'lib, o'z faoliyatini tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlarining muntazam uchrashuvlari shaklida amalga oshiradi. Tashkilot dolzarb xalqaro muammolarni hal

qilishda hamkorlik masalalarini ko'rib chiqadi, aloqalarning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Yig'ilish yilda bir marotaba o'tkaziladi.

2022-2023-yillarda O'zbekiston tuzilmaga raislik qildi. Raislik yili 2022-yil 11-noyabrda Samarqandda bo'lib o'tgan TDT sammiti bilan ochilgandi. Ekspertlar va TDT a'zolarining fikriga ko'ra, tarixiy sammit natijalari tashkilotni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi:

jumladan, savdo va bojxona tartibotlarini soddalashtirish, shuningdek, Investitsiya jamg'armasini yaratish to'g'risidagi muhim shartnomalar imzolandi.

Davlatimiz rahbari mazkur sammitda so'zga chiqib, O'zbekiston ham o'z raiisligi davrida "Turkiy dunyo nigohi — 2040" konsepsiyasi hamda qabul qilinayotgan "Turkiy davlatlar tashkilotining besh yillik strategiyasi"ni samarali amalga oshirish, 170 milliondan ortiq aholi yashaydigan ulkan mintaqani o'z ichiga olgan tashkilot nufuzini yanada mustahkamlash va eng asosiysi — tarixi, tili va madaniyati mushtarak bo'lgan qardosh xalqlar va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni

yuksak pog'onaga olib chiqish niyati ekanligini ta'kidlagan edi.

O'zbekiston rahbari tashkilot faoliyatini chuqur tahlil qilish asosida turkiy davlatlarning ulkan salohiyati va imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

O'zbekistonning tashkilotga raisligi davrida 30 dan ortiq yirik tadbirlar, jumladan, mamlakatlarimizning iqtisodiyot, savdo, sog'liqni saqlash, ta'lim, kosmos, energetika va maxsus xizmatlar vazirliklari hamda idoralar rahbarlarining uchrashuvlari o'tkazildi.



O'ZBEKISTON – FRANSIYA: QAT'IIY ISHONCH VA AZALIY DO'STLIKKA ASOSLANGAN MUNOSABATLAR STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIDA DAVOM ETADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Davlatimiz rahbari o'z nutqida yetakchilar kelgusida savdo hajmlarini keskin oshirish, Fransiya kompaniyalarining investitsiyaviy faoliyatini ko'zda tutib, savdo aloqalariga har tomonlama ko'maklashishga kelishib olganlarini qayd etdi.

Bunda qo'shma loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy qilinadi, biznes uchun yanada qulay sharoitlar yaratiladi va ishbiarmonlik tashabbuslariga har tomonlama ko'maklashiladi.

Bugungi kunda energetika, tog'-kon sanoati, suv ta'minoti, transport, qishloq xo'jaligi, bank-moliya va boshqa sohalardagi hamkorlikda katta natijalarga erishilmoqda.

Fransiyaning ishbiarmon doiralari bilan samarali va ochiq muloqotni kengaytirish uchun yangi samahsul platformalarni yaratishga tayyorlik bildirildi.

Shu ma'noda, mamlakatimiz yetakchisi O'zbekiston — Fransiya savdo palatasini tashkil etish bo'yicha forum doirasida erishilgan kelishuvni olqishladi. Bundan tashqari, Toshkent shahrida "Business France" agentligining ofisini ochish rejalarini qo'llab-quvvatlandi.

Fransiya hukumati, yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari O'zbekistondagi islohotlar dasturini faol qo'llab-quvvatlashda davom ettirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Bir narsani aniq aytishim mumkin — islohotlarimiz orqaga qaytmass tus oldi. Bizning bosh ustuvor maqsadimiz — kuchli fuqarolik jamiyati institutlari, zamonaviy infratuzilma va qudratli sanoatga ega bo'lgan demokratik davlatni qurishdir, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston — Fransiya sherikligini kengaytirish bo'yicha to'rtta eng ustuvor yo'nalishni ko'rsatib o'tdi va qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Mamlakatimiz "yashil" energetikadek muhim sohada strategik hamkorlikni rivojlantirishga tayyor ekanini ta'kidladi. Bu borada "EDF", "Enel", "Total Energies" kompaniyalari bilan yirik loyihalar boshlangan.

Kooperatsiyaning yana bir muhim yo'nalishi sifatida strategik xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va ilg'or texnologiyalar asosida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish qayd etildi. Bu sohada "Orano" kompaniyasi bilan sheriklikni kengaytirish rejalarini boshlab berildi.

Suv resurslaridan samarali foydalanish va zamonaviy infratuzilmani barpo etish muhim ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tildi. "SUEZ", "Eiffage" va "Veolia" kompaniyalari bilan birgalikda yurtimiz suv ta'minoti va itishtir tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha katta

ishlar olib borilayotgani ta'kidlandi.

Navbatdagi muhim yo'nalish sifatida qishloq xo'jaligida raqobatbardoshlikni oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga katta e'tibor qaratildi.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz hududlarida zamonaviy agroligistika majmualarini qurish bo'yicha Fransiya tomoni bilan faol hamkorlik qilinishi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Prezidenti biznes-forum ikki mamlakat ishbiarmonlari o'rtasida amaliy muloqotni jadallashtirish hamda yangi o'sish nuqtalarini belgilab olishga qaratilgan bilan, ayniqsa, ahamiyatli ekanini ta'kidladi.

Yangi O'zbekistonda ishlash uchun fransiyalik hamkorlarimizga eshiklarimiz doim ochiq ekanini, qanday foydali qo'shma loyihalarimiz bo'lsa, amalga oshirishga doim tayyorligimizni ta'kidlamochimam, — dedi davlatimiz rahbari so'zining yakunida.

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron ham biznes forumi ishtirokchilariga murojaat qildi. U Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni to'liq qo'llab-quvvatlab, ushbu siyosat tufayli ikki tomonlama investitsiyaviy hamkorlik uchun katta imkoniyatlar ochilganini qayd etdi. O'zaro manfaatli sheriklikda mavjud ulkan salohiyatni yanada faol ishga solishga chaqirdi, bundan mamlakatlarimiz iqtisodiyotlari va xalqlari manfaat topishiga ishonch bildirdi.

Biznes forumi yakunida energetika, metallurgiya, suv ta'minoti, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa muhim sohalarda erishilgan kelishuvlar bo'yicha salmoqli hujjatlar to'plamini imzolandi.

O'zbekiston — Fransiya biznes forumi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Orano" kompaniyasi raisi Klod Imoven, "EDF" kompaniyasi raisi va bosh direktori Lyuk Remon hamda "Semmaris" kompaniyasi raisi Stefan Layani, "Meridiame" kompaniyasi raisi Tyerri Do, "Lactalis" kompaniyasi raisi Emmanuel Benye, "Boehinger Ingelheim" kompaniyasi raisi Kristian Vjisen va Fransiya taraqqiyot agentligi rahbari Remi Riub bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot chog'ida mazkur kompaniyalar va agentlik bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish, birgalikda amalga oshirilayotgan va istiqboldagi loyihalar yuzasidan fikr almashildi. Davlatimiz rahbari yurtimizda Fransiya tadbirkorlarining samarali faoliyatini qayta ko'rib chiqish va qulayliklarni yaratilishini qayd etdi.

Samarqanddagi oliy darajadagi muzokaralardan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron mamlakatlarimizni yanada

yaqinlashtirish va xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga qat'iy intilish belgisi sifatida Samarqanddagi Kongress markazi bog'ida daraxt ekdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron mamlakatimiz madaniy merosiga bag'ishlangan ko'rgazma bilan tanishdilar.

Unda mamlakatimizning 7 ta muzeyidan eksponatlar jamlangan. Xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyati haqida tasavvur beruvchi bu nodir ashyolar xronologik ekskursiya tarzida joylashtirildi.

Ma'lumki, yurtimiz hududi transkontinental aloqalar rivojlanishi bilan savdo, fan, ta'lim, madaniyat va me'morchilik markaziga aylangan. Qadimiy yodgorliklarda ko'plab madaniyatlar — turkiy, forsiy, yunon-baqtiriya, arab, hind, xitoy va boshqa xalqlar qadriyatlarining izlari bor. O'ziga xos namoyish tomoshabiniga eksponatlarining nafisligini, madaniy va tarixiy ahamiyatini tushunishga yordam beradi hamda mamlakatimiz bo'yab sayohat qilish istagini uyg'otadi.

Ko'rgazma 3 ta bobuldan iborat. Birinchi bo'lim qadimgidavlatlar davri, madaniyatlarining ipak yo'li orqali tarqalishi, Kushonlar imperiyasi haqida bo'lib, haykatchalar, tilla buyumlar va tangalar namoyish etilgan. Ularning ayrimlari O'zbekiston va Fransiya omlarining birgalikdagi ekspeditsiyasida topilgan diqqatga sazovor.

Ikkinchi bo'lim qadimiy va o'rta asrlarda san'at va madaniyatning gullab-yashnashi, yo'llar va karvonlar mavzusi bilan tanishtiradi.

Uchinchi bo'lim Rennessans va temuriylar davrida Markaziy Osiyoda islom dinining tarqalishi, madaniyat va ilm-fan rivojlanishi haqida. Bu yerda mehmonlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi ulug' allomalarning qo'lyozmalari bilan tanishishi mumkin. Bu bo'lim buyuk hukmdor Amir Temur siymosi atrofida tashkil etilgan bo'lib, unda o'sha davrga oid bezak buyumlari va Fransiya qirolining Sohibqironiga yo'llagan maktabi taqdim etilgan.

Ikkinchi bo'lim qadimiy va o'rta asrlarda san'at va madaniyatning gullab-yashnashi, yo'llar va karvonlar mavzusi bilan tanishtiradi. Uchinchi bo'lim Rennessans va temuriylar davrida Markaziy Osiyoda islom dinining tarqalishi, madaniyat va ilm-fan rivojlanishi haqida. Bu yerda mehmonlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi ulug' allomalarning qo'lyozmalari bilan tanishishi mumkin. Bu bo'lim buyuk hukmdor Amir Temur siymosi atrofida tashkil etilgan bo'lib, unda o'sha davrga oid bezak buyumlari va Fransiya qirolining Sohibqironiga yo'llagan maktabi taqdim etilgan.

Fransuz tili va madaniyatini targ'ib qilishga ko'maklashuvchi ushbu nohukumat notijorat tashkilot 1883-yilda Parij shahrida Jyul Vern va Lui Paster kabi o'z davrining atoqli shaxslari tashabbusi bilan tuzilgan. Bugungi kunda Fransuz alyansining 800 dan ziyod filiallari dunyoning 137 ta mamlakatida

faoliyat yuritmoqda.

Alyansning mamlakatimizdagi birinchi filiali 2015-yilda Toshkentda ochilgan edi. Madaniyat va til sohasidagi ikki tomonlama almashinuvlarni yanada kengaytirish maqsadida yaqinda Samarqand shahrida yana bir filial tashkil etildi.

Tashrif chog'ida davlat rahbarlari tasmani tantanali ravishda kesdilar va markazni ochib berdilar.

Prezidentlar zamonaviy jhozlangan markazning imkoniyatlarini tanishdilar. Bu yerda fransuz tili va adabiyoti bo'yicha o'quv kurslari tashkil etiladi. Markaz 200 nafargacha fransuz madaniyatiga qiziquvchilarni qabul qila oladi.

Alyansning Samarqanddagi faoliyat xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, o'zaro do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron mamlakatimizga rasmiy tashrifi doirasidagi tadbirlar yakunida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Samarqand shahridagi qadimiy obidalar bilan tanishdi.

Davlat rahbarlari dastlab Mirzo Ulug'bek rasadxonasi va muzeyini borib ko'rdi.

Ma'lumki, Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek Amir Temurning suyuqli nabirasi bo'lgan, Sohibqironning egzu ishlarini davom ettirgan. U ham hukmdor, ham olim sifatida ilm-fan va madaniyatni rivojlantirgan, bunyodkorlikka katta e'tibor qaratgan. O'rta asrlardayoq noyob rasadxona barpo etib, osmon jismlarini juda aniq o'rganagan.

Mirzo Ulug'bekning "Zij jadedi Ko'ragoniy" asari dunyo astronomiyasida muhim o'lanma hisoblanadi. Uni Yevropa, jumladan, fransiyaliklar ham yaxshi bilishadi.

Xususan, fransuz astronomi Jozef-Nikolya Delil faoliyat davomida Mirzo Ulug'bekning asarlarini o'rganagan. "Zij jadedi Ko'ragoniy" asarini lotin tiliga tarjima qildirgan. Delil 1739-yilda buyuk bobokalonimizning astronomiya jadvallari haqida nutq so'zlagan. Ushbu nutqning matni hozirgacha saqlanib qolgan.

Bu kabi ma'lumotlar ikki xalq aloqalarining tarixiy ildizlari qanchalik teranligini ko'rsatadi. Mehmonlar muzeyida Mirzo Ulug'bek davriga oid ashyolar, kitoblar, qo'lyozmalar, asl nusxadagi kvadrant asbobini ko'zdan kechirdi.

Prezidentlar Amir Temur maqbarasiga bordi.

Oliy martabali mehmonga buyuk Sohibqironning hayoti, harbiy mahorati, bunyodkorlik ishlari haqida so'zlab berildi.

Amir Temur o'z kuch va salohiyati bilan hukmdorlik darajasiga chiqqan, Hindistondan Yevropagacha bo'lgan

hududda barqaror davlat barpo etgan nodir shaxsdir. Sohibqironning harbiy yurishlari va diplomatiasi uzoq o'lkalarga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Yevropa qirollari Amir Temur davlatini tan olib, u bilan aloqa o'rnatishga intilgan.

Shu bois ham butun dunyoda Amir Temur shaxsiga va temuriylar merosiga qiziqish katta. Jumladan, 1988-yilda Fransiya Davlati tarixi va madaniyatini o'rganuvchilar assotsiatsiyasi tuzilgan. Uning sobiq prezidenti, professor Lyusen Keren Amir Temur va temuriylar davrini ko'p yillar davomida tadqiq etgan, Fransiya va O'zbekiston xalqlari yaqinlashishiga katta hissa qo'shgan uchun O'zbekistonning "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

1996-yilda Parijdagi UNESCO qarorgohida "Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi" nomli ko'rgazma bo'lgan. O'tgan yili davlatimiz rahbarining Fransiyaqacha tashrifi doirasida Luvr muzeyida tashkil etilgan "O'zbekiston vohalarining mo'jzalari. Karvon yo'llari chorrahasida" ko'rgazmasi katta voqea bo'lgan edi. Unda temuriylar merosiga alohida o'rin ajratildi.

Davlat rahbarlari Registron majmuasida ham bo'ldi.

Ma'lumki, ma'skan Mirzo Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridan iborat. Mirzo Ulug'bek va Bahodir Yalang'o'sh qurdirgan bu obidalar asrlar davomida ilm ahlini o'ziga chorlab kelgan, yuzlab olimu fuzalolarga maktab bo'lgan. Ajoyib simmetriya va me'moriy qiyofa kasb etgan majmua bugungi kunda Samarqandning "tashrif qog'ozi" ga aylangan.

Mehmonlarga ajdodlarimizning me'morchilik an'analari, peshtoqlardagi naqshlar va ma'nolar haqida so'zlab berildi.

So'ng Prezidentlar Shohi Zindaga bordi. Bu majmua sahoba Qusam ibn Abbas va allomalarning maqbaralaridan iborat. Majmuaning tarixi, madaniy va badiiy qimmatini shundaki, u arxitektura va bezak san'atining bir necha asrlar davomida rivojlanishi haqida tasavvur beradi. Shohi Zinda 2001-yilda UNESCOning Butunjahon merosi ro'y xatiga kiritilgan. Shu jihatlar bilan sayyohlarni hamisha o'ziga jalb etadi.

Mehmonlar majmua darvozasi va maqbaralar tarixi bilan tanishdi, naqshlar nafisligini e'tirof etdi.

Shu bilan Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning mamlakatimizga rasmiy tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
G'olib HASANOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.

TARAQQIYOT VA FAROVONLIK YO'LIDAGI MUSHTARAK QADAMLAR

Ularda TDtni institutsional isloh qilish, "yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoni"ni yaratish, o'zaro transport bog'liqligi hamda oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Turkiy dunyo birligini mustahkamlashga beqiyos hissa qo'shgan buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot birinchi marta tantanali ravishda topshirildi.

O'tgan yil davomida O'zbekiston Turkiy madaniyat xalqaro tashkilotiga to'laonli a'zo bo'ldi. Shu bilan birga, TURKSOY tuzilganining o'ttiz yilligi tantanali ravishda nishonlandi.

O'zbekiston avvalboshdanoq turkiy tili davlatlar, jumladan, Turkiya bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va kengaytirishning faol ishtirokchilari va tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. Biroq 2000-yildan boshlab respublika turkiyzoabon mamlakatlar sammitlarida qatnashishni chekladi va keyinchalik o'z ishtirokini to'xtatdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 3-sentyabr kuni Cho'iponotada (Qirg'iziston) bo'lib o'tgan VI sammitda faxriy mehmon sifatida ishtirok etishi tashkilot bilan hamkorlik tarixidagi burilish nuqtasi bo'ldi. Bu O'zbekiston rahbarining sammitda ilk bor qatnashishi edi.

O'shanda TDT bilan aloqalar bo'yicha aniq tashabbuslar, jumladan, Xivani "Turkiy dunyoning madaniy poytaxti" deb e'lon qilish (2020-yil) va TDT ishbiarmonlar kengashi yig'ilishlaridan birini (2019-yil) Toshkentda o'tkazish taklifi ilgari surilgan edi.

2019-yil 14-sentyabrda O'zbekiston Naxichevan bitimini (2009-yil 3-oktyabr) ratifikatsiya qildi va hujjat depozitariyaga — Turkiya Respublikasiga rasmiy xabarnoma yubordi.

O'zbekistonning tashkilotga qo'shilishi bilan Turkiy kengashga a'zo boshqa davlatlar faoliyatida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Bu TDtning mintaqaviy tashkilot sifatidagi roli o'sib borayotganidan dalolat beradi.

2019 — 2023-yillarda bo'lib o'tgan sammitlarda O'zbekiston Prezidenti tomonidan tuzilma doirasida ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 52 ta tashabbus ilgari surildi. Bugungi kungacha 35 tasi amalga oshirildi va 7 tasi yakuniy bosqichda. Amalga oshirilayotgan tashabbuslardan 10 tasi tashkilotning Samarqand va Anqara sammitlarida tilga olindi.

Hayotda ijobatini topgan tashabbuslar qatorida Yosh tadbirkorlar forumi ta'asis etilgan va uning birinchi uchrashuvi 2021-yil sentyabr oyida O'zbekistonda o'tkazilgan, transport va bojxona tartib-qoidalarini raqamlashtirish bo'yicha loyihalar ijrosi, 2021-yil iyun oyida TDtga a'zo davlatlar turizm vazirlarining 6-uchrashuvi o'tkazilishi, Qo'qonning 2022-yilda "Turkiy dunyo sayyohlik poytaxti" deb e'lon qilinishi, a'zo davlatlar qishloq xo'jaligi vazirlarining 1-yig'ilishi hamda 2022-yil iyun oyida Toshkentda Birinchi turkiy agroforum, 2022-yil iyun oyida Buxoroda IV yosh yetakchilar forumi o'tkazilishi va boshqalarni sanash mumkin. Shuningdek, 2023-yil 16-mart kuni TDtning Anqaradagi navbatdan tashqari sammiti chog'ida Turkiy investitsiya jamg'armasini tashkil etish o'g'risida bitim imzolandi va hozirgi paytda a'zo davlatlar shartnoma kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan ichki tartib-qoidalarini amalga oshirmoqda.

TDtning Samarqand sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev "Turkiy dunyomizning havas qilsa arziydigan buyuk tarixi, ulug' ajdodlari va beqiyos boyliklari bor. Va men ishonaman, turkiy dunyoni buyuk kelajak kutmoqda. Bu kelajakni, hech shubhasiz, mehnatkash, bag'rikeng va oliyanob xalqlarimiz bilan birgalikda yaratamiz", degan edi. Bu strategik nuqtayi nazar O'zbekistonning TDT doirasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash va kengaytirishga sodiq ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, Turkiy davlatlar tashkilotining Ostona shahrida bo'lib o'tadigan sammiti umumiy maqsadlarga erishish yo'lida birgalikda tashlangan yana bir qadam bo'ladi va unda ilgari suriladigan tashabbuslar ko'p qirrali o'zaro manfaatli hamkorlikni turkiy dunyoning bundan keyingi taraqqiyoti va ravnaqi uchun yangi mazmun bilan boyitadi.

"Dunyo" AA.

Dunyo nigohi

O'ZBEKISTON YEVROPA ITTIFOQINING ENG MUHIM IQTISODIY VA SIYOSIY HAMKORI

XALQARO EKSPERTLAR SAMARQANDDA BO'LIB O'TGAN OLIY DARAJADAGI O'ZBEKISTON — FRANSIYA SAMMITI YAKUNLARI HAQIDA.

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning 1-2-noyabr kunlari O'zbekistonga rasmiy tashrifi o'zbek — fransuz munosabatlari tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Ikki davlat rahbarlarining mamlakatlararo munosabatlari strategik sheriklik darajasiga olib chiqish to'g'risidagi kelishuvi ushbu tashrifning eng muhim natijalaridan biri bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining Fransiyaning yirik kompaniyalari rahbarlari bilan muzokaralari iqtisodiy aloqalar va yaqin sarmoyaviy sheriklik

munosabatlari chuqurlashtirishdan o'zaro manfaatdor ekanini namoyon etdi. Xalqaro ekspertlarning fikricha, Prezident Emmanuel Makronning mamlakatimizga tashrifi Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonning Fransiya va butun Yevropa Ittifoqi mintaqaviy siyosatida munosib geosiyosiy davlat sifatidagi roli sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi.

Xose Ventura BALLESTER, Ispaniyaning strategik va xalqaro tadqiqotlar jamg'armasi (FESEI) departamenti rahbari: — Bugungi kunda Toshkent va Parij o'rtasidagi jadal rivojlanayotgan munosabatlar O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi strategik mavqeiini hisobga olgan holda Yevropa Ittifoqining eng muhim iqtisodiy va siyosiy hamkori sifatidagi roli tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ikki davlat rahbarlari o'rtasida o'rnatilgan ishonchli va do'stona munosabatlar, ularning katta ahamiyatga molik xalqaro masalalar bo'yicha nuqtayi nazarlari yaqinligi ham muhim o'rin tutadi.

Denis BERDAGOV, qirg'izistonlik siyosatshunos: — Ushbu tashrif, mening fikrimcha, g'ayrioddiy qadam hisoblanadi. Bir tomondan, bu kutilgan edi, ammo bugungi kundagi voqelik Fransiya va O'zbekiston o'rtasida sifat jihatdan yangi imkoniyatlar paydo bo'lganini ko'rsatmoqda.

Fransiya o'z mahsulotlari uchun yangi bozorlar qidirilmoqda, dunyodagi eng ilg'or maktablardan biri bo'lgan muhandislik maktablaridan foydalanishni, shuningdek, Fransiya kapitalini investitsiya qilish uchun bozorlarini jiddiy ravishda qayta ko'rib chiqmoqda.

Tanlov, shubhasiz, strategik jihatdan qator muhim aktivlarga ega bo'lgan Markaziy Osiyoga to'g'ri keladi. Buning boisi mineralarning ulkan zaxirasi, birinchi navbatda, gaz, neft, uran va boshqa metallar, xususan oltingin mavjudligi bilan izohlanadi. Bular mintoqamizni Fransiya uchun ko'pgina yo'nalishlarda eng yaqin va istiqbolli sherik qiladi.

Xolislik bilan aytganda, Fransiya mehnat migratsiyasi doirasida ham mintoqamiz bilan o'zaro hamkorlikni ko'rmokda, deb o'ylayman. Bu borada esa Markaziy Osiyo katta insoniy salohiyatga ega.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo Xitoy va Yevropa, Eron va Rossiya, Turkiya va Mo'g'uliston o'rtasidagi tovar va texnologik oqimlarning yangi

chorrahasiga aylanmoqda. Shunga ko'ra, yaqin kelajakda mintaqamizga, xususan, O'zbekistonga sarmoya kiritish istiqbolli hisoblanadi.



Iqtisodiy va gumanitar aloqalarni uzmagun holda Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston sarmoyalarni jalb qilish, malakali ishchi kuchlari oqimini yo'naltirish bo'yicha o'z siyosatini Yevropa Ittifoqi bilan muvofiqlashtirish uchun barcha asos va imkoniyatlarga ega, deb o'ylayman.

Endi NGUYEN, "CPG Corporation" korporatsiyasining biznesni rivojlantirish bo'yicha vitse-prezidenti:

— Tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarda muhim voqea bo'lib, turli sohalardagi hamkorlik uchun yangi uqlarni ochadi. Samarqanddagi oliy darajadagi muzokaralar ko'p qirrali munosabatlarni chuqurlashtirish va amaliy hamkorlikni kengaytirishga ikki tomon ham tayyor ekanligini ko'rsatdi. Ikki mamlakatning uzoq muddatli va barqaror integratsiyasi kaliti bo'lgan savdo-iqtisodiy aloqalar, innovatsiya va investitsiya sohalaridagi hamda madaniy-gumanitar hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi.

Qo'shma biznes forumida yetakchi kompaniyalar va moliya institutlarining ishtiroki ishbiarmon doiralarning o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga bo'lgan qiziqishi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Hukumatlararo va idoralararo bir qator bitimlar, shuningdek, savdo va investitsiya bitimlarining imzolinishi O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi qo'shma loyihalarni amalga oshirish va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ladi.

Prezident Makronning O'zbekistonga tashrifi zamonaviy dunyoda xalqaro muloqot va diplomatik sa'y-harakatlarning muhimligini ta'kidlaydi.



Fransiya Yevropa Ittifoqining asosiy ishtirokchilaridan biri sifatida O'zbekistonni barqaror, uzoq muddatli va ishonchli sherik sifatida ko'rgan holda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan strategik hamkorlikni yanada rivojlantirishga yangi turki berishga intilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ikki mamlakat munosabatlari har tomonlama yuqori darajadagi

O'ZBEKISTON – TURKIY DUNYONING FAOL ISHTIROKCHISI

Keyingi yillarda jahon siyosiy doiralarda turkiy davlatlardagi ijobiy o'zgarishlarga, rivojlanish tendensiyalariga, shuningdek, o'zaro aloqalar evolyutsiyasining mohiyati va keyingi taraqqiyotiga nisbatan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya a'zo bo'lgan hamda Turkmaniston va Vengriya kuzatuvchi maqomida ishtirok etayotgan

Turkiy davlatlar tashkilotining nufuzi tobora yuksalmoqda.

Bugungi kunda ko'plab davlatlar mintaqaviy tashkilotlar atrofida jamlanishga e'tibor qaratishayotir. Chunki bunday platformalar mamlakatlari o'rtasida o'zaro hamkorlikka mos zaminni ta'minlayapti. Shu jihatdan Turkiy davlatlar tashkiloti yigirma birinchi asrning pragmatik hamkorligi va dinamik realliklariga muvofiq tarzda rivojlanib borayotgan muhim tuzilmadir.

Qardoshlik rishtalari

Turkiy davlatlar tashkilotining shakllanish jarayoni uch bosqichdan iborat. 1992-yil chaqirilgan Turkiy tili mamlakatlar sammiti a'zo davlatlar o'rtasida integratsiyani kuchaytirish yo'lidagi birinchi qadam edi. 2009-yilda Ozarbayjonda o'tkazilgan to'qqinchi sammitda Turkiy tili davlatlar hamkorlik Kengashini (Turkiy kengash) tuzish to'g'risida Naxichevan bitimi imzolandi. 2021-yili esa Kengash Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) deb o'zgartirildi.

Mamlakatimiz tashkilotga 2019-yilda a'zo bo'lib kirgan. 2022-yil 11-noyabrda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Davlat rahbarlari kengashi TDTning birinchi sammiti bo'lib, unda O'zbekiston tashkilotidagi raislikni Turkiydan qabul qilib oldi. Taklif va tashabbuslarga boy bo'lgan ushbu tadbirga qiziqish har doimgidan ko'ra yuqori bo'ldi. Negaki, Samarqandda bo'lib o'tgan tarixiy sammit yakunlari tashkilot rivojida yangi davrni boshlab berdi. Qator muhim hujjatlar, jumladan, savdo va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda Investitsiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi bitimlar qabul qilindi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston raisligida o'tayotgan yilda Turkiy davlatlar tashkilotida muhim ahamiyatga molik va keng qamrovli ishlar amalga oshirildi: ko'p tomonlama sheriklikning barcha yo'nalishi va sohalari qamrab olgan o'ttizdan ortiq yirik tadbirlar o'tkazildi, hamkorlik yanada kengaydi, yangi yuksalish sur'atiga erishildi. Shuningdek, tashkilotni institutsional jihatdan isloh qilish, "yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoni"ni yaratish, transport sohasida o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bugun TDTga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlarda taxminan 173 millionga yaqin aholi yashaydi, bu dunyo aholisining 2 foizdan ko'prog'ini tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlar hissasiga sotib olish qobiliyati pariteti bilan hisoblangan

dunyo yalpi ichki mahsulotining 3 foizdan ortig'i to'g'ri keladi. TDTning yana bir o'ziga xosligi ushbu tuzilmaning hamkorlik uchun ko'p qirrali yo'nalishlari mavjudligida. Xususan, Naxichevan bitimining 2-moddasiga binoan tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, ko'plab-quvvatlash masalalari, shuningdek, siyosiy, savdo-iqtisodiy, huquqni himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza etish, madaniy, ilmiy-texnik, harbiy-texnik, ta'lim, energetika, transport, kredit sohalari samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish masalalari tashkilotning muhim maqsad hamda vazifalari sirasiga kiradi. O'z navbatida, TDT doirasidagi hamkorlik savdo va investitsiya uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, bojxona va tranzit tartibini yanada soddalashtirish, shuningdek, fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, yoshlar, sport va turizm sohasidagi sheriklikni kengaytirish, turkiy xalqlarning buyuk madaniy va tarixiy merosini ommalashtirishga qaratilgan.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun TDT qoshida 6 ta tuzilma — Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti, Turkiy mamlakatlar Parlament assambleyasi, Xalqaro turkiy akademiya, Turkiy madaniyat va meros fondi, Turkiy savdo-sanoat palatasi, TDTning Vengriyadagi vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Bunday tashkiliy tuzilma TDT oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

2021-yil Istanbul sammitida qabul qilingan "Turk dunyosi nigohi — 2040" konseptual hujjati doirasida TDT o'zaro investitsiya uchun qulay sharoit yaratishga, bojxona va tranzit jarayonlarini soddalashtirishga, fan, texnologiya, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, yoshlar siyosati, sport va turizm sohalari hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda.

Shunisi e'tiborliki, mohiyatan, TDT qatnashchilari O'zbekistonning azaliy qadriyatlarini hisoblagan. Tashkilotga a'zolik esa mamlakatimizga ular bilan hamkorlikni yanada kengaytirish uchun

qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi. Ishirokchi mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar haqida so'z borar ekan, bu boradagi yutuqlarni O'zbekistonning tashkilot doirasidagi iqtisodiy hamkorligi misolida ko'rib chiqish mumkin.

2022-yilda O'zbekistonning TDT bilan o'zaro tovar aylanmasi hajmi salkam 10 milliard dollarga yetdi. Bu mamlakatimiz tashqi savdosining 22 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichni 2016-yildagi ma'lumotlar bilan solishtirsak, O'zbekiston TDT mamlakatlari bilan savdo hajmini uch marotaba oshirgani yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston TDT mamlakatlari bozorlariga to'qimachilik mahsulotlari, elektr energiya, avtomobil butlovchi qismlari, bog'dorchi va qora metallurgiya mahsulotlarini eksport qilmoqda. Ayni vaqtda mamlakatimiz metall mahsulotlari, alyuminiy, qurilish materiallari, neft mahsulotlari va don import qiladi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka katta e'tibor qaratmoqda. Davlatimiz rahbari mintaqaviy mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik strategiyasini yaratish, savdo to'siqlarini bartaraf etish, elektron tijoratni kengaytirish va savdo hajmini oshirish tashabbuslarini ilgari surdi. Turkiy davlatlar o'rtasida savdo sohasidagi salohiyatni o'rganish va konstruktiv loyihalarni ishlab chiqish maqsadida "Savdo hamkorlik bo'yicha tadqiqot markazi" tashkil etish taklifi ham Prezidentimizga tegishli. Buning amaliy isboti o'laroq Toshkentda TDT qishloq xo'jaligi vazirlarining birinchi uchrashuvi o'tkazildi, uning doirasida o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish, jumladan, ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni ilgari surishga kelishib olindi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik bo'yicha ishchi guruhi doirasida beshta qo'mitaga asos solishga qaror qilindi.

O'zbekiston uchun TDTda eng ustuvor yo'nalish iqtisodiy munosabatlar sanaladi. Bu infratuzilmalarni yaxshilash



va qo'shma loyihalarni ishlab chiqishdek masalalarni kun tartibiga olib chiqadi. Rasmiy Toshkent yondashuvi avvalroq qabul qilingan "Turk dunyosi nigohi — 2040" maqsadlariga deyarli muvofiq keladi. TDT ushbu hujjat asosida o'z makonida farovon mintaqani yaratishni ko'zda tutgan.

Bu borada tashkilot doirasida Samarqandda Investitsiya jamg'armasining tashkil etilgani diqqatga sazovor. Bunday tashabbuslar mamlakatlarimiz sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish va sarmoyalar samaradorligini oshirishga yordam berishi, shubhasiz. Shu o'rinda qayd etish joizki, 2017 — 2022-yillar davomida TDT ishtirokchi mamlakatlarining O'zbekistonga yetqizgan sarmoyalari miqdori 2,5 milliard AQSH dollaridan oshdi. Mazkur raqamlar mamlakatimizga kiritilgan umumiy sarmoyalarning 10 foiziga teng. Shuningdek, TDT davlatlarining investitsiyalari 2017-yildan boshlab 30 foizga oshdi.

Mamlakatimiz uchun yana bir muhim masala — raqamli transformatsiya hisoblanadi. Zero, raqamlashtirish har bir davlat rivojining bosh mezoniga aylangan. Ushbu mavzuga "Turk dunyosi nigohi — 2040" dasturi doirasida alohida o'rin ajratilgan. Bu boradagi hujjat raqamli birlashmalarni tashkil etish va telekommunikatsiyaviy infratuzilmalarni yaxshilashni ko'zda tutadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt ahamiyatini hisobga olsak, taxmin qilish mumkinki, texnologik sohadagi hamkorlik ham sanoat, ham shaharlar infratuzilmalari o'lchami bo'yicha kengayib boraveradi.

O'zbekistonimiz katta ahamiyat berayotgan hamkorlikning yana bir yo'nalishi — bu madaniy va gumanitar aloqalarni mustahkamlash. Chunki TDTning ishtirokchi mamlakatlari umumiy ildlizlarga ega. Ta'lim va ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni akademik almashuvlar va qo'shma madaniy tadbirlar o'tkazish orqali kengaytirish imkoniyati yuqori. Shu ma'noda, Toshkent TURKSOY doirasidagi faoliyatni qo'llab-

quvvatlashda davom etadi. Qolaversa, O'zbekiston taklifi bilan 2022-yil Turkiy davlatlar tashkiloti makonida "Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilingan edi. Uning doirasida Buxoro shahri Turkiy dunyo yoshlar poytaxti maqomiga ega bo'ldi.

Boshqa tomondan, TDT mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarda transport-logistika sektori muhim o'rin tutadi. Samarqand sammiti ko'proq ana shu muhim mavzuga bag'ishlandi, desak, yangilishmagan bo'lamiz. O'zbekiston transport yo'laklarini rivojlantirishga bo'lgan intilishlarni yuqori baholaydi. Chunki TDT mamlakatlari Vengriya va Osiyoni bog'lash imkoniyati bor. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, turkiy davlatlar Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi ko'priklar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayni paytda davlatimiz rahbari Xitoydan boshlanib, Kaspiy dengizi orqali Kavkaz, u yerdan Yevropaga cho'zilgan O'rta yo'lakni rivojlantirish zarurligiga e'tiborni qaratib kelmoqda.

Yana bir ustuvor yo'nalish — mintaqamizda xavfsizlikni ishonchli ta'minlash masalasi. So'nggi paytda jahonning turli nuqtalaridagi ziddiyatli voqealar turkiy dunyoning umumiy xavfsizligiga ham ta'sir o'tkazayapti. Bunday murakkab vaziyatda terrorizm, ekstremizm, yoshlarning radikalashuvi, odam savdosi, narkotrafikka qarshi kurashish, jamoat va kiberxavfsizlikni ta'minlash sohalari huquqni muhofaza qiluvchi va maxsus xizmatlar doimiy aloqada bo'lishi hamda hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Shu ma'noda, o'tgan hafta Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekistonda TDTga a'zo davlatlar Xavfsizlik kengashi kotiblarining yig'ilishi tashkil etilishi xavfsizlikning dolzarb masalalarini yuzasidan fikr almashish hamda bugungi notinch dunyodagi umumiy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi birgalikda javoblar ishlab chiqish uchun samarali maydon bo'lib xizmat qildi. Bu boradagi hamkorlik mexanizmi

TDT makonida xavfsizlik sohasidagi muloqotni mulqoq yangi darajaga olib chiqishi, shubhasiz.

Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, uning nufuzini yanada oshirish, hamkorlik salohiyatidan to'liq foydalanish, qabul qilinayotgan qarorlar va kelishuvlar ijrosini ta'minlash eng dolzarb vazifa sanaladi. Tashkilot doirasida juda ko'p tuzilmalar va turli mexanizmlar tashkil etilgan bo'lib, vazirlar darajasida ko'plab yig'ilishlar, boshqa tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Ammo ochiq tan olish kerak, bularni tizimli muvofiqlashtirish va natijadorligini ta'minlash borasida hali ancha ish qilinishi lozim. Asosiysi, tashkilot kelgusida mulqoq yangi, samarali tizim asosida ishlash uchun umumiy sa'y-harakatlarni birlashtirish zarur.

Shu maqsadda davlatimiz rahbari TDTning Samarqand sammitida tashkilotda institutsional islohotlar o'tkazishni taklif etdi. Bunda, avvalo, ustuvor yo'nalishlar bo'lgan siyosat va xavfsizlik, savdo va investitsiya, transport, qishloq xo'jaligi, energetika, axborot texnologiyalari, turizm, innovatsiya va ta'lim, tibbiyot, yoshlar va boshqa sohalarda bo'yicha vazirlar darajasida alohida qo'mitalar tuzish taklif qilindi. Bundan tashqari, tashkilot Kotibiyatining o'rni va ta'sirini keskin oshirish maqsadida uning yangi tuzilmasi joriy yilning 3-noyabrda Ostonada bo'lib o'tadigan sammitda tasdiqlanishiga ishonch bildirildi.

Muxtasar aytganda, Turkiy davlatlar tashkiloti turkiy olamni birlashtiruvchi yuqori salohiyatga ega mintaqaviy tashkilotdir. Uning tobora jozibador tuzilmaga aylanib borayotgani ham shundan. Shu nuqtayi nazaridan, barcha ishtirokchi davlatlar, jumladan, O'zbekiston TDT doirasidagi hamkorlik jarayonlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishdan manfaatdor.

Abduvali SOYIBNAZAROV ("Xalq so'zi").

Oliy Majlis Senatida

"YO'L XARITALARI"NING IJROSI TAHLILDAN O'TKAZILDI

Parlament yuqori palatasida Oliy Majlis Senatining Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi bilan hamkorlik bo'yicha komissiyasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi.

Uni Senat Raisi, komissiya raisi T. Norboyeva olib bordi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan amaliy harakatlar rejalarini ("yo'l xaritalari") ijrosining borishi muhokama qilindi.

Yig'ilishda Koreya Respublikasi bilan oliy darajada erishilgan aniq kelishuvlar doirasida qator ishlar amalga oshirilganligi qayd etildi.

Xususan, joriy yilda Jizzax viloyatida 7 mln. dollarlik "Optik tola ishlab chiqarishni kengaytirish" loyihasi ishga tushirildi. Natijada yiliga 85 ming kilometrlik optik tola kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi. Farg'ona viloyatida esa 7 mln. dollarlik Kasbiy ta'lim markazi to'liq ishga tushirildi. Manzilli ro'yxat asosida 223 nafar ishsiz bo'lgan shaxs, asosan, yoshlar va xotin-qizlar o'qitilmoqda. Xuddi shu kabi loyiha Xorazm viloyatida ham boshlangan.

Shuningdek, Koreya Respublikasi Hukumati tomonidan "Hududiy tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash" loyihasiga 74 mln. dollar ajratilishi ma'qullandi. Loyiha doirasida 35 turdagi jami 8 ming 455 ta tibbiy jihoz Koreya Respublikasidan keltirilishi rejalashtirilmoqda.

Qolaversa, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasida 5,6 mln. dollarlik "Yashil tiklanish" investitsiya loyihasi amalga oshirilayotir. Yashil o'sish global instituti (Koreya)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi ochildi. Institut Orolbo'y mintaqasining yashil tiklanishini moliyalashtirish ishlarini boshladi.

Umuman olganda, O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik barqaror rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, tadbir davomida "yo'l xaritalari"dagi kechikish bilan bajarilayotgan ayrim vazifalarga e'tibor qaratildi va sabablari birma-bir tahlil qilindi. Xususan, "yo'l xaritalari" ijrosiga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan vazirlik va idoralar rahbarlari mas'uliyatini oshirish, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli ta'minlash, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar berilishi hamda muddatlar belgilandi.

Majlis yakunida bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflar asosida komissiyaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

IZCHIL TASHQI IQTISODIY MULOQOT — RIVOJLANISH KAFOLATI

Har bir mamlakat taraqqiyoti undagi barqarorlik, do'stlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va yaxshi qo'shnihilik muhitining saqlanishiga uzviy bog'liq.

Shu paytga qadar 137 ta davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan mamlakatimiz tashqi siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning to'la huquqli a'zosi sifatida xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini shakllantirdi va uni o'zaro manfaatli sohalarda rivojlantirmoqda.

Aks sado

Keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va yuqori saviyadagi muzokaralarda faolligi tufayli "Dunyoga ochiqlik siyosati"ga sodiq qolayotgan O'zbekistonning yangi hamkorlari, xayrixohlari ortib bormoqda. Dunyoning yirik davlatlari bilan munosabatimiz strategik sheriklik darajasigacha ko'tarilayapti.

Kuni kecha yurtimizga tashrif buyurgan Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron ham Prezident Shavkat Mirziyoyevning iqtisodiy siyosati tufayli ikki mamlakat

o'rtasidagi investitsiyaviy hamkorlik uchun katta imkoniyatlar ochilganini ta'kidladi. Fransuz kompaniyalari tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasiga investitsiya kiritishda O'zbekistondagi ijobiy islohotlar muhim o'rin tutayotganiga alohida e'tibor qaratilib, mamlakatimizdagi islohotlar yangi bosqichga chiqqani, bu esa Fransiyaning mintaqaga kiratadigan investitsiyalarini qo'llab-quvvatlashda juda muhim o'rin tutishi qayd etildi.

Ta'kidlash kerak, bularning

barchasi Prezidentimizning iqtisodiy diplomatiya bo'yicha strategiyasi samarasidir. Zero, O'zbekiston tomonidan xalqaro maydonda ilgari surilayotgan tashabbuslar va sa'y-harakatlar tashqi aloqalar geografiasining kengayishiga, qolaversa, mamlakat iqtisodiy diplomatiyasining kuchayishiga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston an'anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish kabi bir qator maqsadlar doirasida keng qamrovli islohotlarni samarali amalga oshirib kelayotir.

Binobarin, O'zbekiston tashqi siyosatining bosh ustuvor yo'nalishi — Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin qo'shnihilik va o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida, ijobiy samara bermoqda.

Olib borilgan keng ko'lami sa'y-harakatlar natijasida hal etilishining o'zi katta muammo bo'lib qolayotgan ko'plab og'riqli masalalar qisqa davrlarda o'z yechimini topdi. Mintaqaning qator davlatlari uchun izsiz rejim joriy qilindi, ko'plab o'tkazish punktlari ochildi. Aviaparvozarlar va quruqlik orqali tashuvlar tiklandi va soni ko'paytirildi. O'zbekiston va mintaqaviy mamlakatlari o'rtasida tovar aylanmasi 10 barobar o'sdi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham milliy manfaatlarini ilgari surish va himoya qilishda iqtisodiy diplomatiya samaradorligini oshirish va uni faollashtirish muhimligi qayd etilgan. Shuningdek, unda iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga oid "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan.

Ko'rinib turibdiki, davlatimiz rahbari tashqi iqtisodiy faoliyatini samarali amalga oshirish va uni tubdan o'zgartirish uchun iqtisodiy diplomatiyani yangi bosqichga olib

chiqish bo'yicha jiddiy vazifalarni qo'yimoqda. Strategiyada mazkur yo'nalishda belgilab berilgan vazifalarning bajarilishi yurtimizning ajahon maydonidagi imiji mustahkamlanishi va reytingi yuqorilashida alohida o'rin tutadi.

Qisqacha aytganda, mamlakatda iqtisodiy diplomatiya samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yurtimizning ulkan imkoniyatlar makoniga aylinishiga xizmat qilishi muqarrar.

Ishonchimiz komilki, kun sayin tashqi olam uchun ochilayotgan yangi O'zbekiston Prezidentimiz boshchiligidagi mintaqaviy va ko'p tomonlama o'zaro aloqalarni yanada mustahkamlab, geosiyosiy muammolar avj olgan keskin o'zgarishlar zamonida o'zining kuchli pragmatik siyosatiga sodiq qoladi va kutilganidek, xalqaro diplomatiyalarni markaziga aylana oladi.

Viktor PAK, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Senat qo'mitasida

QURILISH ISHLARI NEGA ORTDA QOLMOQDA?

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda prokuratura organlari faoliyatini ustidan nazorat qiluvchi komissiyasi yig'ilishida Toshkent viloyatida o'tkazilgan o'rganishlar natijalari tanqidiy muhokama etildi.

Tadbirda Prezidentimizning 2022-yil 22-yanvardagi "2022 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan Toshkent viloyatidagi prokuror nazorati holatiga alohida e'tibor qaratildi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda yurtimizda keng ko'lami qurilish-bunyodkorlik ishlarini bajarilmoqda. Bunda "Xalqni rozi qilish" tamoyiliga asosan aholiga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy soha hamda infratuzilmalarni rivojlantirish obyektlarini qurishga katta ahamiyat berilyapti. Shu maqsadlarda hududlardagi haqiqiy holat

va talabdan kelib chiqqan holda har yili yangi maktab, bog'cha, kasalxona, sog'lomlashtirish maskanlari qurilayotgan bo'lsa, mavjudlari zamon talabiga mos ravishda qaytadan ta'mirlanmoqda.

Tabiiyki, bu ishlar o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashda prokuror nazorati salmoqli o'rinda ega. Buni Toshkent viloyati prokuraturasi organlari huzurida tuzilgan hududiy shtablar tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar misolida ham ko'rish mumkin.

Ular tomonidan qurilish ishlarini sifatli va hajmining haqqoniyligi o'rganilib, 150 ta obyektda 10,6 mlrd. so'mlik ish sifatisiz bajarilgani, 106 ta obyektda esa 4,8 mlrd. so'mlik qo'shib yozish holatlari mavjudligi aniqlangan.

Tegishli dastur ijrosi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida prokuratura organlari tomonidan 19 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib, 14,4 mlrd. so'm miqdordagi zarar qoplangan. Shu bilan birga, viloyatdagi har bir obyektning loyiha-smeta hujjati qayta o'rganilishi natijasida 994 ta loyihada 216,8 mlrd. so'm mablag' budjetdan ortiqcha xarajat qilinib qolgan.

Bundan tashqari, qurilish ishlarini sust olib borilayotgan 35 ta obyektda 845 nafar mahalliy yosh jalb etilib, bandligi ta'minlangan.

Senatlar ijobiy ishlar bilan bir qatorda, viloyatda ijtimoiy soha va infratuzilmani rivojlantirish obyektlari qurilishida kamchiliklar saqlanib qolayotganiga ham e'tibor qaratildi. Masalan, dasturdagi 13 ta obyekt o'tgan yilda foydalanishga topshirilishi lozim bo'lsa-da, o'rganish kuniga qadar ish yakunlanmagan, foydalanishga topshirish dalolatnomalari to'liq rasmiylashtirilmagan.

Qolaversa, dastur doirasida joriy yilda

topshirilishi lozim bo'lgan 101 ta obyekt rejaning ortda qolmoqda, yangidan qurilishi rejalashtirilgan 21 ta obyektga hali ish boshlanmagan.

Shuningdek, joriy o'quv yilida foydalanishga topshirilishi kerak bo'lgan 4 ta maktab hamda 7 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida qurilish yakunlanmagan. Yuqori Chirchiq, Bo'stonliq, Qibray, Yangiyo'l tumanlarida 2 tadan, Chirchiq, Nurafshon shaharlari hamda Bekobod tumanida bittadan ana shunday obyektlar mavjud.

Shulardan kelib chiqib, yig'ilishda qurilish ishlarining sifatli va o'z vaqtida bajarilishida pudratchilar mas'uliyatini yanada oshirish, qurilish ishlariga to'siq bo'layotgan muammolarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan bartaraf etish, bu borada prokuratura organlarining nazorat faoliyatini kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Muhokama yakunida Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

BIR DARYODAN SUV ICHGAN ELLARMIZ



Ustozning maslahati bilan Toshkent shahrida uch yilga yaqin arxivda ishladim, ikki xalq o'rtasidagi tarixiy aloqalarga oid ko'plab ma'lumotlar to'pladim. Va 1994-yilda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi "Qirg'iz va o'zbek xalqlarining tarixiy aloqalari" mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildim. Shu asnda ikki xalq o'rtasidagi tarixiy rishtalar va munosabatlar juda boy ekaniga amin bo'ldim.

Qirg'iz va o'zbek xalqlari asrlar davomida yonma-yon yashab, bir daryodan suv ichgan, tili, dini, bozoriyu mozori bir bo'lib, tashqi dushmanlardan birgalikda himoyalangan. Qiyin kunda bir-birini tashlab qo'ymagan, dardu quvonchlarini o'zaro baham ko'rganlar.

Dunyoga dong'i ketgan buyuk sarkarda Amir Temur, so'ngra Mirzo Bobur davrida ham, keyinchalik Jung'or xonligining bosqinchiligiga qarshi kurashda qirg'iz va o'zbek xalqlari o'rtasidagi munosabatlar chuqurlashib, XVIII asr boshlarida birgalikda Qo'qon xonligiga asos solgan, xonlikning 167-yillik tarixi mobaynida yagona davlatda birga yashagan. Ular mamlakatni tashqi dushmanlardan himoyalashga ham bir tanu bir jon bo'lishgani tarixdan ma'lum.

1865-yilda qirg'iz elining atoli sarkardasi Alimqul Toshkentni Rossiya imperiyasi bosqinidan himoya qilishda qahramonlik ko'rsatdi, shahid bo'ldi, jasadi Toshkentda dafn etildi. Yana bir o'g'lon, Po'latxonning jasadi ham Marg'ilonida mangu qo'nim topdi. Butun qirg'iz va o'zbek xalqi ularni qo'llab-quvvatladi, ortidan ergashdi, ozodlik uchun kurashda yelkadosh bo'ldi.

Xalqlarimiz Rossiyaning O'rta Osiyoga bosqini va undan keyingi mustamlakachilik azobini ham birga tortdi, Turkiston gubernatorligining Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand, Jetisuv viloyatlarida bir el bo'lib yashadi. Ular Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi, ayniqsa, 1898 va 1916-yillardagi ozodlik kurashida bir safda bo'lganini tarix unutmaydi. 1898-yilgi qo'zg'olon bostirilgach, 10 dan ortiq kishilar osildi, 500 dan ko'prog'i Sibirga surgun qilindi, oddiy xalq katta miqdorda badal to'ldi.

Mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnihilik rishtalari bog'lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi.

Shu ma'noda, tarixchi sifatida qirg'iz va o'zbek xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish taqdirimga yozilganidan minnatdorman. Gap shundaki, bu mavzuni 35 yil muqaddam taniqli o'zbek olimi, tarix fanlari doktori, professor Hamid

Abadiy do'stlik

Qo'qon xonligi va undan keyingi rus mustamlakachilik davrida qirg'iz va o'zbek yonma-yon turib, Farg'ona vodiysidagi kanallarni qazish va sug'orish inshootlarini barpo etishda qatnashdi. Ular tabiiy ofatlarda — ko'klamgi toshqinlar yoki zilzilalar paytida ham, chorva mollari nobud bo'lib, ko'chmanchilar ocharchilikka yuz tutganda ham hamisha bir-biri bilan baqamti bo'lgan, yordam qo'lini cho'zgan. Masalan, 1902-yil 3-dekabr kuni Andijonda kuchli zilzila yuz berib, shahar vayronagarchilikka yuz tutadi. Bu yer osti silkinishida Andijon shahrida 1 mingdan ziyod, atrofda 158 ta qishloqda 3 ming 342 kishi nobud bo'lgan.

O'sha paytdagi ma'lumotlarga ko'ra, 30 ming uy yaroqsiz ahvolga kelgan. "Turkestanskiye vedomosti" gazetasida shunday paytda qo'shni qirg'iz xalqi birinchi qatorida yordam qo'lini cho'zgan, uy-joyidan ayrilgan va jabr ko'rgan aholiga zilzilaning ertasigayoq 40 ming dona non yetkazib berilgani haqida yozilgan edi. Gazetada, shuningdek, yaqin atrofda qishloqlar aholisi zudlik bilan bo'z uylar yig'ib, jabrlanganlarga yetkazgani haqida ham xabar beriladi.

1910-yilning 22-dekabrda esa qirg'izlar istiqomat qilgan Pishpek vodiysining Cho'nkemin hududida ham xuddi shunday kuchli zilzila sodir bo'lgan. Katta talafotga sababchi bu tabiiy ofatda qirg'izlarga birinchi yordamni o'zbek xalqi ko'rsatgani tarixiy manbalarda saqlanib qolgan.

Ikki qo'shni xalq o'rtasidagi qon-qardoshlik, ahillik shoir va hofizlarning yaqin munosabatida ham ko'rinadi. Shu paytgacha atoli qirg'iz oqini To'qto'g'ul Sotilganov bilan o'zbek xalqining mashhur hofizi Mulla To'ychi Toshmuhamedov o'rtasidagi uchrashuv, ikkovning ijodiy raqobati xalq orasida afsonaga aylangan. San'atkorlarning bunday iliq munosabatlari haqidagi hikoyalari ham bir maqolaga sig'maydi.

Ikki xalq o'rtasidagi aloqalar sovet hokimiyati davrida ham mustahkam bo'lgan. Abdigodir O'zbekov va Yo'ldosh Oxunboboyev, Usmon Yusupov va Ishaq Razzoqov o'rtasidagi do'stona munosabatlar haqida ko'p gapirish



mumkin. Qirg'iziston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasining birinchi kotibi Ishaq Razzoqov O'zbekistonda rahbar sifatida tarbiyalangan, so'ngra Usmon Yusupov taklifi bilan Qirg'izistonga yuborilgan. Yana bir ibratli voqea, 1985-yilda — qayta qurish davrida, Moskva O'zbekistonga tuzmat toshlarini yog'dirganida qirg'izning buyuk farzandi, dunyoga mashhur adib Chingiz Aytmatov o'z maqolasi bilan o'zbek xalqini himoya qilib chiqqan edi.

O'zbekistonning bugungi rahbari ham qirg'iz xalqiga samimiy munosabati bilan mashhur. Prezident Shavkat Mirziyoyev qisqa vaqt ichida o'zini haqiqiy yetakchi sifatida ko'rsatdi, O'zbekistonda tub islohotlarni amalga oshirib, taraqqiyotga keng yo'l ochdi. Ayni chog'da u o'zbeklar bilan asrlar davomida yonma-yon yashab kelayotgan qirg'iz xalqiga alohida hurmat-ehtiromini amalda tasdiqladi.

Buni quyidagi misollardan ham bilsa bo'ladi.

Birinchi, O'zbekiston rahbari tashabbusi bilan Jizzax viloyatidagi Manas qishlog'i 45 kun ichida obod etilib, butunlay yangi shaharchaga aylandi. Bu bilan u nafaqat qirg'izlar istiqomat qiladigan qishloqqa, balki xalqimiz muqaddas tutgan "Manas" dostoniga ham o'z hurmatini bildirdi.

Ikkinchi, O'zbekiston yetakchisining qirg'iz an'analariga, jumladan, she'riyatiga muhabbati ikki davlat rahbarlarining 2017-yilda Bishkekda bo'lib o'tgan uchrashuvida yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu uchrashuvda qirg'izistonlik yosh iste'dodli shoir Idris Aytboyeva do'stlikni madh etishga qo'shgan hissasi uchun

zamonaviy avtomobil va uch xonali kvartira sovg'a qilindi.

Uchinchi, qirg'izlarni dunyoga tarannum etgan buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning 90 yillik yubileyi 2018-yilda davlat rahbari qarori asosida O'zbekistonda katta shodiyona bilan nishonlandi. Ayrim shaharlovchilar yozuvchining 90 yilligi o'z Vatanida ko'ra, O'zbekistonda kengroq nishonlanganini e'tirof etdi. O'sha yili Toshkentning bosh ko'chalaridan biriga Chingiz Aytmatov nomi berildi, haykali o'rnatildi.

To'rtinchi, ko'p yillardan buyon bahs-munozaraga sabab bo'lib kelayotgan ikki davlat o'rtasidagi chegaralarni aniqlashtirishdek murakkab va yechimi og'ir muammoni hal etishda ham Shavkat Mirziyoyevning o'rni alohida. Ayni paytda chegara masalasi hal qilingan, ikki davlat o'rtasida tinch-totuv hayot, o'zaro bordikeldi bir maromda davom etyapti.

Beshinchi, kamina ham bevosita Shavkat Mironovich ko'magida Toshkent shahridagi Markaziy davlat arxivida ishlash imkoniga ega bo'ldim. Bungacha O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida Qirg'iziston tarixiga oid arxiv hujjatlari yo'qligi, shuning uchun ruxsat berilmasligi haqida javob olgan edim. Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanganidan keyin Qirg'izistonga ilk rasmiy tashrifi chog'ida bu masala muhokama qilindi va ikki davlat tashqi ishlar vazirlariga topshirib berildi.

Arxiv rahbariyati bizdan har doim o'z yordamini ayamaydi. Biroq arxiv hujjatlarini olish juda qimmat turadi. Fursatdan foydalanib, qirg'iz tarixchilarining arxiv hujjatlari arzon yoki bepul taqdim etilishi borasidagi iltimosini bildirmoqchiman.

Umuman, yuqorida keltirib o'tilgan misollar O'zbekiston Prezidentining qirg'iz xalqiga bo'lgan mehri va burchi, xolos. Yon qo'shni — jon qo'shni, qardosh mamlakat rahbarining bu mehri ni doim qadrlaymiz.

Kiyas MOLDOKASIMOV, "Meros" fondi raisi, tarix fanlari nomzodi, Qirg'iz Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

Yangi qonun

XOTIN-QIZLARNING VAKILLIK ORGANLARIDAGI O'RNI KENGAYADI

Xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini kafolatlash, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan sanaladi. O'tgan davrda mamlakatimizda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarni tazyiq va no'raonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonunlar bu borada muhim huquqiy asos bo'lmoqda.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy-huquqiy faolligi oshmoqda, ularning davlat boshqaruvidagi ishtiroki yanada kengaymoqda. Eng muhimi, ular barcha sohada islohotlarning faol ishtirokchisiga aylanib borayotir.

Fikrimiz isbotini tashabbuskor va faol ayollarmizdan 2 ming nafarga yaqini davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilayotgani, xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a'zolari hamda mahalliy Kengashlar deputatlarining 25 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani misolida ham ko'rish mumkin.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanini belgilab qo'yilgan. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi ular ulushini 30 foizga oshirish masalasi o'z aksini topgani yurtimizda xotin-qizlarning jamiyati taraqqiyotidagi o'rni naqadar beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda bu bo'yicha olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida O'zbekiston gender tenglik masalalarida bo'yicha qator xalqaro reytinglarda yuqori pog'onalarga ko'tarildi. Jumladan, Parlamentlararo Ittifoqning 2023-yil 1-yanvarda e'lon qilingan "Siyosatdagi ayollar" jahon reytingida dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida mamlakatimiz 52-o'rinni band etdi. 2023-yil sentyabrda e'lon qilingan Ochiq gender ma'lumotlar indeksida O'zbekiston 69,7 ball to'plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 ta mamlakat orasidan joy oldi.

BMT Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'ining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, 166 ta mamlakat orasida O'zbekiston mavqei 8 pog'onaga ko'tarilib, 69-o'rinda qayd etildi.

Mazkur hafta boshida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ko'rib

chiqilgan hamda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan normalarni hayotga ichkil tatbiq etishga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

Inchunin, bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan ushbu hujjatga ko'ra, Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganida ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining 30 foizidan 40 foizga oshirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritildi.

Agar xorijiy tajribaga to'xtaladigan bo'lsak, Italiya saylov qonunchiligida ayollar uchun aniq foizli kvotalar mavjud emas. Biroq Italiya 2019-yilda siyosiy partiyalar uchun gender kvotasi qonunini kiritdi. Unga ko'ra, partiyalar milliy va Yevropa parlament saylovlari uchun partiya ro'yxatlarida teng miqdordagi erkak va ayol nomzodlarni ko'rsatishni talab qiladi.

Fransiyada esa 2000-yilda siyosiy partiyalar uchun gender kvotasi qonuni joriy qilingan. Mazkur hujjat parlament va Yevropa saylovlari uchun partiyalar ro'yxatida erkak va ayol nomzodlarning muqobil shakli bo'lishini talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, har bir erkak nomzod uchun ayol nomzod ko'rsatilishi kerak va aksincha.

Shubhasiz, "O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun xotin-qizlarning vakillik organlaridagi hamda ularning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash sa'y-harakatlarini yangi bosqichga olib chiqadi. Ayni chog'da ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi rolini kuchaytirish hamda ularning siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Nodir ABDUVALIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Irrigatsiya

SUV XO'JALIGI SOHASIDA ALOQALARNING MUTLAQO YANGI MUHITI

Joriy yilning 1-2-noyabr kunlari Toshkent shahrida Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasining 85-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, O'zbekiston delegatsiyalari, komissiyaning joriy etuvchi organlari hisoblangan "Amudaryo" va "Sirdaryo" havzalari suv xo'jaligi birlashmalari, shuningdek, komissiya kotibiyati va ilmiy-axborot markazi rahbarlari qatnashdi.

Tadbirni Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi a'zolari — O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vaziri Sh. Hamroyev, Qozog'iston Respublikasi suv resurslari va irrigatsiya vaziri N. Nurjigitov, Tojikiston Respublikasi energetika va suv resurslari vazirining birinchi o'rinbosari J. Shoimzoda, Turkmaniston Respublikasi Suv xo'jaligi qo'mitasi raisi D. Genjiyev kirish so'zi bilan ochib berdi.

Xususan, suv xo'jaligi vaziri Sh. Hamroyev joriy yil vegetatsiya mavsumini muvaffaqiyatli o'tkazishda qo'shgan hissasi uchun komissiya tarkibiga kiruvchi barcha ijrochi tashkilotlar, xususan, "Amudaryo" va "Sirdaryo" havzalari suv xo'jaligi birlashmalari hamda ularning hududiy bo'linmalari, komissiya kotibiyati va ilmiy-axborot markazi vakillariga minnatdorlik bildirdi.

Prezidentimiz tashabbusi va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining o'zaro hamkorlikda olib borayotgan do'stona siyosati natijasida suv xo'jaligi sohasida aloqalarning mutlaqo yangi muhiti shakllangan, bu esa samarali mulqot va o'zaro manfaatlarni

hisobga olishga asoslangan konstruktiv munosabatlar o'rnatish imkonini berayotganligi ta'kidlandi. Shuningdek, o'zaro sa'y-harakatlar, qo'shni davlatlar bilan do'stona va ishonchli munosabatlar Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Vazir O'zbekiston hukumati mintaqaning barcha respublikalari bilan davlatlararo suv hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha konstruktiv mulozimlarni davom ettirishga tayyorligini ma'lum qilib, Markaziy Osiyo davlatlarini bu jarayonda faol ishtirok etishga da'vat qildi.

Yig'ilishda mintaqada mavjud suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, Orolbo'yi hududida suv va ekologik vaziyatni yaxshilash, 2023-2024-yillar kuzgi-qishki mavsum uchun suv olish bo'yicha prognoz limitlar bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi hamda hisobotlar eshtildi.

Komissiya a'zolari davlatlarning Amudaryo va Sirdaryo havzasi bo'yicha 2023-2024-yillar kuzgi-

qishki mavsum uchun suv olish bo'yicha prognoz limitlarini tasdiqladi. Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtiruvchi komissiyaning navbatdagi 86-yig'ilishini 2024-yilning yanvar oyida Qozog'iston Respublikasida o'tkazishga kelishib olindi.

Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi a'zolari Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimlari va yosh tadqiqotchilar, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisleri instituti" milliy tadqiqot universiteti talabalari bilan mulqot qildi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari kirib kelishi hisobga ko'plab kasblar qisqarib ketishi mumkin, lekin suvchilar yana yuz yillar davomida el-yurtga xizmat qilishi haqidagi e'tiroflar talabalari va tadqiqotchilarning sohaga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirdi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasiga uyg'un tarzda ko'chat ekish marosimi bo'ldi. Tashabbuskor yoshlar bu ko'chatlarga "do'stlik daraxtlari" deb nom berishdi.

Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi a'zolari Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutining laboratoriyasi, tajriba uchastkasidagi suv tejoychi texnologiyalar, shuningdek, ilmiy ishlanmalar bilan tanishdi.

"Xalq so'zi".

KUNDALIK HAYOT TARZIMIZGA AYLANISHI SHART BO'LGAN QOIDA

Ma'lumki, korrupsiya jamiyatni ichdan yemiradigan, davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan zararli illat. Shu bois barcha taraqqiyparvar jamiyatlarda unga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga alohida urg'u beriladi.

Nuqtai nazar

Bu borada yurtimizda ham keng ko'lami choralalar amalga oshirilayotir. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tyapmiz. Albatta, bu oson bo'lmagligi aniq. Ya'ni korrupsiya holatlarining oldini olishda butun jamiyat yaxlit bir kuchga aylanishi talab etiladi. Zero, korrupsiya so'zi lug'atlardan chiqmas ekan, hech bir mamlakatda rivojlanish bo'lmagligi aniq.

Korrupsiya ma'lum bir tarmoq doirasidagi illat emas, u allaqachon jamiyatning barcha bo'g'ini, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarning jon tomoriga kirib ulguragan. O'zini hurmat qilgan, yurt taraqqiyotining ertasini o'ylagan har bir fuqaro bu illatga qarshi turishi, uning yo'lga to'g'anoq bo'lishi lozim.

"O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat korxonasi hamda korrupsiya va bu illatning oldini olishga qaratilgan tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Institutimizda 2021-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish koplaysens nazorat xizmati joriy qilingandi. Bu tizim korrupsiya holatlariga vaqtida barham berishga xizmat qilayotganligini natijalar misolida ko'rib turibmiz.

Prezidentimizning 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan, O'zbekiston milliy metrologiya institutida ISO 37001:2019

va manzilli ish olib borib, tashkilot va idoralar bilan yaqin hamkorlik qilmoqda. Birgina 2023-yilning shu kungacha qadar 16 ta hududiy filialimiz hamda Toshkent shahrida 500 dan ortiq korxonalar bilan turli masalalar mavjudligi bo'yicha anonim so'rovnomalarni o'tkazilib, tahlil qilindi. Hududiy filiallarda tuzilgan shartnomalarni tanlab olish yo'li bilan 260 ga yaqin korxonalarda qayta aloqa tizimi orqali o'tkazilgan so'rovnomalar tahlili natijasida institutning 60 dan ortiq xodimlari orasida anonim so'rovnomaga o'tkazildi.

Murojaatlarning bajarilish muddati tahlil qilinganda, "ye-metrologiya" axborot platformasida har 15 kunda 1 800 dan ziyod elektron murojaatlar o'rganilishi natijasida ayrim xodimlar ba'zi hujjatlarni to'ldirishda kamchiiklarga yo'l qo'ygani ma'lum bo'ldi. Aniqlangan jiddiy kamchiiklar bo'yicha 4 nafar xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilindi, 20 nafar xodimga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llanildi, 18 nafar xodimlar qat'iy ogohlantirildi.

Har chorakda 2022-yil 12-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori ijrosi bo'yicha olib borilgan ishlar ko'rib chiqilib, ma'lumotlar agentlikka taqdim etil kelib qolmoqda.

Sirasini aytganda, korrupsiya — ijtimoiy barqarorlik kushandasi. Shunday ekan, mazkur illatga qarshi kurash olib borishga nafaqat davlat organlari, balki jamiyat va umuman, barcha fuqarolarimiz mas'uldir.

Ma'rufjon JALILOV, "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" DK direktori o'rinbosari.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulligina qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiy lashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.15 Topshirildi — 02.30

1 2 3 4 5 6